

MUQADDAS KITOBLAR - DINNING ASOSIY MANBAASI SIFATIDA

G'aniyeva Mubina Xasanjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Tarix fakulteti Ijtimoiy ish yo'nalishi

2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir dinning muqaddas kitobi uning ma'naviy boyligi ekanligi, kitoblarning nozil bo'lish vaqtlari va holatlari, ularning inson ongiga ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Annotation: This article reflects on the fact that the Bible of each religion is its spiritual wealth, The Times and circumstances of the revelation of books, their influence on the human mind.

Kalit so'zlar: din, e'tiqod, ma'naviy boylik, kitob, Avesto, Injil, Tavrot, Qur'oni Karim, Zabur, YUNESKO, ezgulik.

Keywords: religion, faith, spiritual wealth, book, Avesto, Gospel, Torah, Quran Karim, Psalms, UNESCO, goodness.

Din va uning asoslarini o'rganish, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarini rivojlantirish, mo'tadil e'tiqod negizlarini ishlab chiqishda ularning asosiy manbaalari bo'lgan muqaddas kitoblari muhim rol o'ynaydi. Ular bebaho ma'naviy boylikdir. Shu boisdan ham ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlardan biri muqaddas kitoblar desak, yangilishmagan bo'lamiz. Quyida bir necha dinlarning muqaddas kitoblar, ularning tarixi va mazmuni haqida alohida to'xtalib o'tamiz.

Avesto – zardushtiylarning muqaddas kitobi (miloddan avvalgi XII-XIII asrlar orasida) hisoblanadi. Zaratushtra – o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. 124 mingdan ko'proq payg'ambar o'tgan. YUNESKO tomonidan 2001- yilda "Avesto" ning 2700 yilligi Xiva shahrida nishonlandi. Eramizdan avvalgi VI asrda Xorazmda yashagan, chorvador oilasi (Pitama urug'idan, Beruniy fikricha (XI asr): bu muqaddas kitob 3 qismdan iborat:

Yashta (sinfy jamiyatgacha bo'lgan ko'pxudolik davri).

Gita – yagona yaxshilik xudosi Axura Mazda haqida. Ko'p xudolik Yashta va yagona xudolik Gita o'rtasidagi kurash.

«Avesto»ning uchinchi kitobi «Visporat» deb nomlangan. U 24 bobdan iborat bo'lib, olamni bilishga doir pand-nasihatlardan iboratdir. Uni ibodat namozlari yig'indisi ham deyishadi. U ayni paytda «Yosin»ga qo'shimcha hisoblanadi. Yana bir kitobi «Bundaxash» deb atalib, u qadimiy eron tilida — pahlaviy tilida yozilgan. U xudoni zolim kuchlarga qarshi kurashda ulug'lovchi o'ziga xos qadimiy qo'shiqlardan iborat, qo'shiqlari 22 tadir. «Avesto» haqida eng muhim manba IX asrga oid «Denkard (Din amallari) asaridir, Unda «Avesto»ning 21 kitobi to'la ta'riflab berilgan. Bu ta'riflar:

savobli ishlar yo'riqnomasi; diniy marosimlar va rasm-rusumlar qoidasi; zardushtiylik ta'-limoti asoslari; dunyoning Axuramazda tomonidan yaratilishi; oxirat kuni va undagi hisob-kitob; falakiyot; ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar; Zardushtning tug'ilishi va bolaligi; haq yo'lini tutishi; jamiyat a'zolarining haq-huquqlari; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o'qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iboratdir.

Zardushtiylik dini haqida ingliz olimi Dj. Buger, fransuz olimi A.Dyupperon juda qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Masalan, A.Dyupperon 1755 yilda Hindistonga ilmiy safar qilib, u yerdagi zardushtiylar orasida 3 yil yashagan, ularning ibodatlarini, urf-odatlarini yaxshi o'rgangan va «Avesto»ni fransuz tiliga tarjima qilgan. 3 jildlik tarjima 1771 yilda nashr etilgan. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash joizki, olimlarimizning fikricha, «Avesto» G'arbiy Evropa, Eron va Hindiston tillari orqali bizga yetib kelgani uchun undagi nomlar, terminlar aksariyat hollarda asliga to'g'ri kelmaydi. «Avesto»dagi turkona jihatlar kam qolgan.¹⁷

Tavrot (qadimgi ibriy tilida “Tora” – Qonun) – iudaizm dini (yahudiylik)ning Xudovand Muso payg'ambarga nozil qilingan ilohiy muqaddas kitobi. U Muso payg'ambarning ilohiy qonunlarini o'z ichiga olgan 5 kitob:

Muqaddas Kitob (Bibliya)ning “Ibtido”, “Chiqish”, “Levit”, “Cho'lda” va “Amrlar” degan kitoblardan iborat. Bibliyani ham “Tavrot” deb ishlatish hollari bor..

Injil – nasroniy (Xristianlik) dinining asosiy bosh kitobi (I – asr boshlarida Alloh taolo tomonidan hazrat Iyso alayhissalomga 30 yoshida nozil etilgan).¹⁸

Qur'oni karim – Islom dinining (VII asr) asosiy ilohiy muqaddas kitobi. Azimusha'n Qur'on Allohning kalomi bo'lib, uning har bir kalomi Alloh tarafidan so'zma-so'z (23 yil davomida) nozil etilgan va hazrati Jabroil alayhissalom orqali payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga yuborilgan.

Xudo olamni, butun borliqni, barcha jonli-jonsiz mavjudotlarni yaratuvchisi – Parvardigori olamning umumiy nomi bo'lib turli xalqlarda quyidagi nomlar bilan nomlanadi:

- 1) Forslarda – “Xudo”.
- 2) Turkiylarda – “Tangri”.
- 3) Arablarda – “Alloh”.
- 4) Islomdan avvalgi Eronda – “Yazdon”, “Ezid”, “Xurmuzd”, “Xudoygon”.
- 5) Yahudiylarda – “Yahve”.
- 6) Slavyanlarda – “Bog”, “Gospod”.
- 7) Hindlarda – “Dayuto”.
- 8) Inglizlarda – “Govd” tarzida zikr etilgan.

Shuningdek, Mashriqzamin manbalarida asosan: “Rabbim”, “Rabb”, “Mavlo”, “Haq”, “Haq taolo”, “Haqsubhonahu va taolo”, “Alloh taboraka va taolo”, “Xudoi taolo”,

¹⁷ Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro'z» nashriyoti, 2019. – 264 b.

¹⁸ Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.

“Xudovand”, “Xudovando”, “Xudoi buzurg”, “Parvardigor”, “Tangri taolo”, “Rabbil olamiyn”, “Tangri subhonahu va taolo”, “Alloh taolo”, “Tangri azza va jalla”, “Mavlo jalla jaloluhu”, “Zuljalol” kabi sifatlar bilan ham tavsiflanadi.¹⁹

Zabur (sanolar, ya’ni psalomlar ma’nosida) – hazrat Dovud (Isroilning ulug’ podshosi) alayhissalomga Alloh taolo tomonidan nozil etilgan, mil. Avvalgi 1050-900 yillar orasida kitobat qilingan.

Xulosa qilib aytganda, har bir dinning o’z manbasi – kitobiilohiy tarzda nozil qilingan. Har bir kitob o’sha dinga e’tiqod qiluvchilarning yo’lboshchisi sifatida xizmat qilib, ularni faqat va faqat yaxshilikka, ezgu amallar bajarishga undagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muratov D., Alimova M., Karimov J. Dinshunoslik, darslik. – Toshkent, «Navro‘z» nashriyoti, 2019. – 264 b.
2. Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O’quv qo’llanma. – T.: «O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.
3. Isoqjonov R. Qiyosiy dinshunoslik. O’quv qo’llanma. – T.: OOO «Complex print», 2020. – 198 b.
4. Kamilov D. Dinshunoslik. O’quv qo’llanma. – T.: Lesson Press, 2021. – 128 b.
5. Shermuxamedova N.A. Diniy fanatizm fenomeni//Inson falsafasi. – T.: Noshir, 2016. B.314-499.

¹⁹ Raximdjanov D., Ernazarov O. Dinshunoslikka kirish. O’quv qo’llanma. – T.: «O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. – 304 b.